

**O'ZBEKISTONDA NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLARNI  
OMMABOPLIGINI OSHIRISH  
INCREASING THE POPULARITY OF CASHLESS  
ACCOUNTS IN UZBEKISTAN**

*Inomjonov Zayniddin Zafarjon o'g'li*

*Andijan state Institute of Technology student*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitob tizimining ahamiyati, mavjud holati, ommabopligrini oshirishda qilinayotgan islohotlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tajribalari tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamlı xizmatlarga ishonchni mustahkamlash hamda to'lov tizimlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha takliflar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli to'lovlar, naqd pulsiz hisob-kitob, bank xizmatlari, QR-to'lov, elektron pullar, moliyaviy savodxonlik.

**Abstract:** This article analyzes the importance, current state, and experiences of reforms and the introduction of modern technologies to increase the popularity of the cashless payment system in Uzbekistan. Based on statistical data, proposals are made to increase the financial literacy of the population, strengthen trust in digital services, and innovatively develop payment systems.

**Keywords:** Digital payments, cashless payments, banking services, QR-payment, electronic money, financial literacy.

Hozirgi davrda iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlari jadal kechmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda naqd pulsiz to'lov tizimlari rivojlanmoqda: HUMO va UZCARD kartalari, Click, Payme kabi mobil ilovalar orqali millionlab fuqaro to'lovlarni elektron tarzda amalga oshirmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitoblar sohasidagi bu o'sish moliyaviy shaffoflik, soliqqa tortish bazasining kengayishi va iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Naqd pulsiz hisob-kitoblarning mavjud holati:** Statistikaga ko‘ra, 2023-yilda Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni 31,4 millionga, hajmi esa 603,8 trillion so‘mga yetdi. Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 44 milliondan oshib, aholi va tadbirkorlar orasida raqamli to‘lov xizmatlariga ishonch mustahkamlanmoqda. QR-to‘lovlar, kontaktsiz (NFC) to‘lovlar, “Tap-to-phone” va “Face ID” texnologiyalari tobora kengaymoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarning qulayligini oshirib, aholining barcha qatlamlarini raqamli to‘lov tizimlariga jalb qilmoqda.

**Muammolar va imkoniyatlar:** Biroq ayrim hududlarda to‘lov infratuzilmasining yetarli emasligi, raqamli savodxonlikning pastligi va texnik imkoniyatlarning cheklanganligi tizimni to‘liq joriy etishda muammolar tug‘dirmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblar hali ham keng ommalashmagan.

Shu o‘rinda tijorat banklarining roli alohida ta’kidlanadi. Banklarning kassa tizimlari naqd va naqd pulsiz operatsiyalarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Kassa operatsiyalari, ularning xavfsizligi va tashkil etilishi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, xizmat sifati va ishonchlilik oshadi.

1. Raqamli savodxonlikni oshirish: Maktab va OTMlarda moliyaviy savodxonlik darslari, ommaviy treninglar tashkil etilishi zarur.
2. To‘lov texnologiyalarini soddalashtirish: QR, NFC va Face ID kabi xizmatlarni aholining keng qatlamiga tushunarli interfeysda taqdim etish.
3. Hududiy infratuzilmani rivojlantirish: Qishloq joylarda terminallar, infokiosklar va bank xizmatlariga kirishni kengaytirish.
4. Kassa operatsiyalarida raqamlashtirishni chuqurlashtirish: Kassalardagi boyliklar nazoratini kuchaytirish va xavfsizlikni oshirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilishi lozim.

O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish yo‘lida ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron to‘lov vositalarining ko‘payishi, mobil bank ilovalarining rivojlanishi, QR va NFC texnologiyalarining kengayishi bunga yorqin misol. Ammo tizimni to‘liq joriy etish uchun huquqiy, texnik va insoniy omillar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

uyg‘unlashuvi talab etiladi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish va barcha qatlamlar uchun qulay infratuzilmani yaratish — asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. XASANOV B.A., KARIMOV A.I. BANK ISHI ASOSLARI. – TOSHKENT: “IQTISODIYOT”, 2020.
2. ABDURAXMANOV Q.A., G‘ULOMOV S.S. PUL-KREDIT VA BANKLAR. – TOSHKENT: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.
3. MAMAJONOV A. TO‘LOV TIZIMLARI VA BANK INFRATUZILMASI. – TOSHKENT: 2022.
4. TURAEV SH. FINTEX VA RAQAMLI TO‘LOV TIZIMLARI. – TOSHKENT: INNOVATSIYA NASHRIYOTI, 2023.